



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING**  
**FARMOYISHI**

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 1-uy. Faks: (+99875)221-12-88, [qashqadaryo@exat.uz](mailto:qashqadaryo@exat.uz)

---

2022 - yil 14 - oktabr

73-4-0-F/22

Qashqadaryo viloyati hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-81-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2022-yil 31-avgustdagi 2-son, Adliya vazirligining 2022-yil 31-avgustdagi 5-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo‘linmalari, davlat unitar korxonalar va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyoti”ga asosan iloyat hokimligining markaziy apparati, shuningdek shahar va tumanlar hokimliklari tomonidan funksiyalaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash jarayonini o‘tkazish maqsadida:**

1. Viloyat hokimligining markaziy apparati, shuningdek shahar va tumanlar hokimliklarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash jarayoni 2022-yilning 1-noyabridan 1-dekabriga qadar bo‘lgan muddatda o‘tkazilsin.

2. Viloyat hokimligining markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, kotibiyatlari shahar va tumanlar hokimliklari 2022-yilning 15-noyabriga qadar:

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqib, rahbar yoki soha

bo'yicha o'rinbosar bilan kelishgan holda viloyat hokimligining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limiga markaziy apparat uchun yagona Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzish maqsadida kiritilishini;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturini ishlab chiqib, tasdiqlanishini ta'minlasin.

3. Viloyat hokimligining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi (R.Ravshanov) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash asosida:

viloyat hokimligining markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, shahar va tumanlar hokimliklarining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalari asosida viloyat hokimligining korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini;

qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarning yuqori darajasi bilan ifodalanadigan tartib-taomillar uchun Uslubiyotning 2-ilovasiga muvofiq baholab, korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxatini;

viloyat hokimligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturini ishlab chiqsin.

4. Ushbu farmoyishda belgilangan topshiriqlarni o'z muddatida va to'liq bajarilishiga, shuningdek zarur ma'lumot va axborotlarni taqdim etilishiga viloyat hokimligining soha bo'yicha o'rinbosarlari, shahar va tumanlar hokimlari shaxsan mas'ul va javobgar etib belgilansin.

5. Mazkur farmoyish ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Viloyat hokimi



M.Azimov